

MUAMMOLI YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

(Ona tili darslari misolida)

Yoqubova Hilola Asrorjon qizi

BuxDUPI 2-bosqich magistranti

Yoqubova Bonuoy Alisher qizi

BuxDUPI 2-bosqich magistranti

D.B.Axmedova

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili fani o‘quv mashg‘ulotlarida interfaol usullardan foydalanish dars samaradorligining oshishiga qay darajada ta’sir ko‘rsatishi masalasi yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchining diqqatini jamlashda, topqirlik, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muammoli vaziyatlardan foydalanish haqida tavsiyalar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, qobiliyat, uslub, topqirlik, ijodkorlik.

Abstract: In this article, the issue of the effectiveness of the use of interactive methods in the teaching of the mother tongue is highlighted. Recommendations were also made about using problematic situations to focus the student’s attention, develop resourcefulness, and creativity.

Key words: pedagogical technology, interactive methods, ability, style, ingenuity, creativity.

Ma'lumki, dars mashg'ulotlarda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, chuqur bilim berish boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoniga olib kirildi. Yangi pedagogik texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchisining aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda pedagogik texnologiyalarning eng ommalashgan turlaridan biri bu muammoli vaziyatdir. Muammoli vaziyat o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi esa o'quvchilarga aniq yo'nalish berish, to'g'ri xulosalarni aytishdan iborat. Muammoli vaziyat yana shunisi bilan ahamiyatliki, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina to'g'ri xulosani aytadi, natijada o'quvchi o'z xatosini tushunib, fikrlashdan to'xtamaydi va ular o'rtasidagi doimiy faollik ta'minlanadi. Ma'lumki, kichik yoshdagi bolalar diqqati beqaror bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun biroz muammolar yuzaga kelishiga olib keladi. Ana shu vaziyatda o'quvchilar diqqatini jamlashda qiziqarli muammoli vaziyatlarning ahamiyati katta. O'quvchilarga rasmi topshiriqlarni bajartirish, ularni fikrlashga, topqirlikka, ijodkorlikka undaydi hamda yozma va og'zaki nutqini o'stirib, lug'at boyligini oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining topqirligini, harflarni eslab qolish qobiliyatini o'stirishda quyidagi metodlar samarali natijalar beradi.

“Kungaboqar” metodi. Kungaboqar rasmi o'rtasida o va u unlilari, uning atrofida esa undosh harflar yozilgan bo'ladi. O'quvchilar undosh va bitta unli harflarni qo'shib, bir necha so'zlar tuzishadi. O'yin davomida o'rtadagi unlilarni almashtirish ham mumkin. O'quvchilar mustaqil ravishda daftarlariga tuzgan so'zlarini yozadilar. Bu jarayonda hamma o'quvchilar baravar ishtirok etishadi. O'qituvchi esa mashg'ulot davomida eng faol qatnashganlarni rag'batlantirib, baholab boradi. Ushbu usuldan yozuv darslarida ham, alifbe darslarida ham foydalanishimiz mumkin. O'quvchi qancha ko'p harf o'rgansa, shu harflarni qo'shib so'z yasay oladi. Birinchi va ikkinchi

kungaboqarda berilgan harflardan shunday soʻzlar yasashimiz mumkin. Masalan: olam, olcha, ota, osmon, usta, uka, uxla.

“Sinkveyn” metodi. Sinkveyn soʻzining maʼnosi “beshlik” boʻlib, “qofiyalanmagan besh qatorlik sheʼr” degan maʼnoni anglatadi. Oʻquvchilar “Sinkveyn” metodidan foydalanib, qofiyalanmagan besh qatordan iborat sheʼr yozadilar. Bunga koʻra birinchi qator bitta soʻzdan iborat boʻlishi va bu ot soʻz turkumiga oid soʻz boʻlishi, ikkinchi qator ikkita soʻzdan iborat boʻlishi va bu sifat soʻz turkumiga oid soʻzlar boʻlishi, uchinchi qator uchta soʻzdan iborat boʻlishi va bu feʼl soʻz turkumiga oid soʻzlar boʻlishi, toʻrtinchi qatorda toʻliq bir maqol keltirilishi va beshinchi qatorda birinchi qatordagi soʻzga sinonim boʻlgan bir soʻz qoʻyilishi mumkin. Oʻqituvchi oʻquvchining fikrini tinglaydi va shu bilan birga, oʻquvchilarni ham sinfdoshlarining soʻzlariga eʼtibor bilan qarashga oʻrgatadi. Eʼtiroz yoki qoʻshimchalar ham “hurmatli”, “sizlarning fikringizga qoʻshilgan holda”, “bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi” kabi soʻzlar orqali bildiriladi. Bu tarzda tashkil etilgan darsda oʻquvchi hech qanday tazyiqsiz erkin fikrlay boshlaydi va oʻz fikrlarini ochiq bayon etadi, boshqalarni ham hurmat qilishga oʻrganadi. Boshlangʻich taʼlimda “Ona tili va oʻqish savodxonligi” darslari oʻquvchilarda mantiqiy fikrlash, lugʻat boyligini oshirish, ogʻzaki va yozma nutqini rivojlantirish (yaʼni toʻgʻri oʻqish va yozish)ga, fonetika, leksika, soʻz yasalishi va grammatikaga oid bilimlarni oʻrganish uchun zamin yaratishga xizmat qilishi lozim. Maʼlumki, ona tili va oʻqish savodxonligi darsida ham lugʻat ishlarini oʻtkazish oʻquvchilarda oʻzi uchun notanish boʻlgan soʻzning izohini berib borish yangi soʻzlarni oʻrganishga qiziqish paydo boʻlishiga sabab boʻladi. Bu soʻzlarning izohini topishda oʻquvchining oʻzi mustaqil izlanishi maqsadga muvofiqdir.

2-sinf “Ona tili va oʻqish savodxonligi” darsligida berilgan “Qiziqarli mashgʻulot”da yondaftarcha yasash mashgʻuloti bir qaraganda ahamiyatga molik boʻlmagan mashgʻulotga oʻxshaydi, chunki “Ona tili va oʻqish savodxonligi” darslarida biror-bir buyumni yasash noanʼnaviylik kasb etadi. Lekin bu mashgʻulot orqali “Texnologiya” fani bilan integratsiya qilingan va faqatgina yasash emas

yondaftarchaga ma'lumotlarni kiritish ham vazifa qilib berilgan. Yondaftarchaga kiritilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarga qarasaq, har bir topshiriq o'quvchilarning chuqur fikr-mulohaza yuritishiga, fikrlarini tartibga keltirishiga, fikrlash doirasini kengaytirishiga qaratilgan. Misol uchun:

1. Yondaftarchangizni nomlang – topshirig'ida har bir o'quvchi o'zini shaxs sifatida ko'radi. Chunki unga tanlash va egalik qilish erkinligi berildi.

2. Orzularingizni nimaga qiyoslaysiz? Orzularingizning rasmini chizing topshirig'i orqali o'quvchilarning o'z olamidagi orzulari, ularning fikrlarini atrofga yanada kengroq yoyish, ota-ona va o'qituvchi hamkorligini oshirish ko'zda tutilgan.

3. Orzularingiz uchun bittadan maqsad yozing – bu topshiriq katta yoshdagi insonlarni-da o'ylovga qo'yadi. Biz orzu qilishni bilamiz, lekin bu orzularimiz tomon harakat qilishni bilmaymiz. O'quvchilarimiz hozirdan orzulariga erishish uchun maqsad qo'yib, shu maqsadlarini amalga oshirishni o'rgansalar, orzulari orzuligicha bolalik dunyolarida qolib ketmaydi. Biz bunga ishonamiz va shu uchun ham harakat qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. K. Mavlonova va boshq. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun. – Toshkent; Respublika ta'lim markazi, 2021.

2. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma/ I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b.